

**“TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION”  
MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI  
BUYRUG’I**

2023 - yil « 11 » 09 01-03-05/11 -son

**“Tashkent International University of Education”  
xalqaro universitetining talabalari uchun odob-axloq qoidalarini  
tasdiqlash to‘g‘risida**

“Tashkent International University of education” xalqaro universitetining talabalari uchun odob-axloq qoidalarini tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:


“Tashkent International University of Education” xalqaro universitetining talabalari uchun odob-axloq qoidalarini 1-ilovaga;

Universitetning talabalari tomonidan odob-axloq qoidalariga zid keladigan nizoli holat va vaziyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Odob-axloq komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor (O.Sheraliev), Yoshlar bilan ishlash bo‘limi (N.Ikramova), Talabalarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi (A.Djabbarov)larga ushbu buyruq bilan universitetning barcha talabalarini tanishtirish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

**Bosh direktor-ректор**

  
**N.Xodjayev**



“Tashkent International  
University of Education”  
xalqaro universitetining  
2023 yil “27” 09 dagi  
01-03-05/11”-sonli buyrug‘iga  
1-ilova

«TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION»  
XALQARO UNIVERSITETI TALABALARI UCHUN  
ODOB-AXLOQ QOIDALARI

**1-BOB. UMUMIY QOIDALAR**

**1. Ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar**

Ushbu qoidalar O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION” xalqaro universiteti (keyingi o‘rinlarda Universitet) talabalari odob-axloqining tamoyillari, mey’orlari, ta’lim jarayonidagi xulq-atvorining asosiy qoidalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

**2. Odob-axloq qoidalarining maqsad va vazifalari**

Odob-axloq qoidalarining maqsadlari:

Talabalarda madaniyatni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish;

Ta’lim muassasalariga oid odob-axloq tushunchasini shakllantirish va takomillashtirib borish;

Ta’lim muassasasida kiyinish, tashqi ko‘rinish va xulq-atvorga bo‘lgan talablarni o‘rnatishdan iboratdir.

Odob-axloq kodeksining vazifalari quyidagilardan iborat:

Universitet talabalari o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

Universitetda zo‘ravonlik, shafqatsizlik va hayosizlik kabi nomaqbul hatti-harakatlar bilan shug‘ullanish va (yoki) targ‘ibot-tashviqot qilinishini oldini olish;

Turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va «ommaviy madaniyat»ning ta’sir hamda xurujlarni targ‘ibot-tashviqot qilinishiga oid harakatlarning oldini olish;

Mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish;



Talabalarda yuksak huquqiy ongini shakllantirish orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

Talabalarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini doimo hurmat qilish va himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish va yuksaltirish;

Talabalarda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

Universitetda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirish;

Talabalarda tashqi ko'rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;

Universitet talabalarining ma'naviy immunitetini shakllantirish, saqlash va himoya qilish,

Universitetning davlat va jamiyat hayotidagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzi, obro'e'tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish.

### **3. Odob-axloq qoidalarining amal qilish doirasi**

Ushbu qoidalar Universitetning barcha talabalariga nisbatan tatbiq etiladi.

## **2-BOB. ODOB-AXLOQ QOIDALARINING PRINTSIPLARI**

### **4. Universitet talabalarini xulq-atvorining asosiy printsiplari**

Mazkur qoidalar qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik, adolat, halollik va xolislik, samaradorlik va tejamkorlik printsiplariga asoslanadi.

### **5. Qonuniylik printsiipi**

Universitet talabalarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so'zsiz rioya qiladilar hamda o'z majburiyatlarini oliy ta'lim muassasasi ichki tartib qoidalari hamda ta'limga oid boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq bajaradilar.

### **6. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi printsiipi**

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Universitetning oliy qadriyati bo'lib hisoblanadi. Universitet talabalarini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'ymaydilar va bunday buzilishlar ro'y bergan hollarda ularni tiklashga ko'maklashadilar.

### **7. Vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik printsiipi**

Universitet talabalarini o'z o'qish faoliyatlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida jamiyatning Universitetga bo'lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda amalga oshiradilar. Talabalar o'z burchlarini o'zaro xayrixohlik, o'z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat'iy nazar lozim darajada bajaradilar.



## **8. Adolat, halollik va xolislik printsiplari**

Universitet talabalari o'z o'quv jarayonini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo'lishlari hamda Universitetga, unga tegishli bo'lgan saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu printsiplari asosida munosabatda bo'lishlari shart.

## **9. Samaradorlik va tejamkorlik printsiplari**

Universitet talabalari o'z bilimlari samaradorligini doimiy ravishda oshirib boradilar.

Talabalar o'z navbatida Universitetning mulkiga, o'zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

# **3-BOB. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH**

## **10. Korruptsiyaning har qanday shakli va ko'rinishini qabul qilmaslik**

Universitet talabalari korruptsiyaning har qanday shakli va ko'rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo'lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarni ko'radilar.

Talabalar korruptsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko'maklashishlari, shuningdek, Universitetning korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa korruptsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlar talablarini so'zsiz bajarishlari, o'z faoliyatlarini oshkora va adolatli amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va printsiplarga sodiq qolgan holda qonun ustuvorligiga qat'iy rioya etishlari shart.

# **4-BOB. TALABALAR YURISH-TURISH VA RASMIY**

## **MULOQOTIGA OID TALABLAR**

## **11. Universitetda kiyinish va tashqi ko'rinishga oid qoidalar**

Talabalar Universitet talablariga mos bo'lgan kiyimda bo'lishlari lozim.

Oliy ta'lim muassasasi talabalari bo'lgan xotin-qizlar tanani ko'rsatib turadigan shaffof, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, yuz qismi identifikatsiya qiladigan darajada to'silgan holda hamda quloqchinlar, quloq va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga turli zirak yoki metall buyumlar bilan, tanasining ko'rinib turadigan qismida pirsing yoki tatuirovkada hamda yorqin pardoz (makiyaj) qilgan holda oliy ta'lim muassasasiga kelishlari mumkin emas.

Oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'lgan erkaklar yarim klassik va klassik uslubdagi kiyimda, soch va soqoli olingan hamda tartibga keltirilgan holda kelishlari lozim. Bunda, barcha talabalar o'zlari bilan zaruriy o'quv vositalarini olib kelishlari shart.

Talabalarining tashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza bo'lishi lozim.

## **12. Majlis va yig'inlarda ishtirok etish**

Universitet talabalari turli tadbirlar (majlislar, tantanali yig'ilishlar, uchrashuvlar, bayramlar)dagi ishtiroki jarayonida so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda



bo'lishlari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo'lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz luqma tashlash va so'zga chiqishlari mumkin emas. Zarurat tug'ilganda nutqlar o'rtasida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

### **13. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish**

Binolarga kirish va chiqish joylarida, shuningdek, yo'laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar ayollarni, yoshlar esa kattalarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

Talabalar Universitet hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari hamda yo'lak va kollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerak.

Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar xodimlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo'lib salom berishlari tavsiya etiladi.

Shuningdek,

a) Universitet hududida:

hududga kirishda talabalik ID kartasini taqdim etish;

hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat maxsus belgilangan joylarga tashlash;

o'qituvchilar va xodimlar bilan uchrashganda, ular bilan salomlashish;

o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;

Universitet mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar) ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

kiyinish (sport kiyimi kiyish ta'qiqlanadi) va muomala madaniyatiga rioya qilish;

mas'ul shaxslarning ruxsatisiz turli xil reklama vositalarini osib qo'yimaslik;

kundalik hayotda tinchlikni saqlash;

narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish talab etiladi. (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, mazkur holatlar yuzasidan tegishli organlarni o'z vaqtida xabardor qilmaslik jinoiy javobgarlikka tortish uchun sabab bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi)

b) auditoriyada:

mobil aloqa vositalarini o'chirish;

o'quv mashg'uloti vaqtida o'rinsiz gaplashmaslik;

jihozlarni asrab-avaylash, partalarga yozmaslik;

qog'oz va boshqa keraksiz buyumlarni qoldirmaslik;

ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

**Muhimi, Universitet ma'muriyati yo'qolgan va tashlab ketilgan buyumlar uchun javobgar emas.**

v) umumiy ovqatlanish joylarida:

taomlarni olishda «Navbat» tartibiga rioya qilish;



navbatlarda o'qituvchilar, ayollar va yoshi kattalarga hurmat ko'rsatish;  
ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;  
umumiy ovqatlanish shaxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish.

g) Axborot-resurs markazida (ARM):

ARM xodimlari bilan xushmuomalada bo'lish;  
kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;  
baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;  
qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;  
kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

d) talabalar turar joylarida:

shaxsiy buyumlarni o'z yonida saqlash, turar joy mulkiga zarar etkazmaslik;  
elektr energiyasi, tabiiy gaz va suvdan tejamkorona (ratsional) foydalanish;  
turar joy, sanitariya va gigiena xonalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish;  
talabalar turar joyi "Nizomi" va "Ichki tartib qoidalari"ga qat'iy rioya qilish.

e) sport majmualarida:

sport majmuasiga xos bo'lgan kiyim va poyabzallarda kirish;  
madaniyatli bo'lish;  
sport inventarlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;  
mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;  
sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

y) Madaniyat saroyida va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan joylarda:

o'rindiq va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda bo'lish;

ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;

uhlab o'tirmaslik, o'rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga xalaqit bermaslik.

Shuningdek,

turli davralarda o'zining namunaviy xulqi va bilimi bilan Universitet talabasi haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;

doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglash;

Universitet manfaati, uning sha'ni va shonli an'analari, obro'si hamda nufuzi to'g'risida qayg'urish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish.



Talabaga quyidagilar qat'iyan man etiladi:

Universitet hududida chekish;

O'qituvchilarga qo'pollik qilish, mashg'ulotlar vaqtida asossiz gapirish;

O'qituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;

xodimlar va o'z o'rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik qilish;

mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish yoki kechikib kelish;

mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;

boshqa talabaning sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazish.

Talabalar tomonidan Universitetning ichki tartib-qoidalari buzilgan taqdirda ularga nisbatan turli ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Taqdim etilgan ta'lim resurslariga kirishni cheklash, Universitet hududi va binosiga kirish, Universitetdan chetlashtirish.

#### **14. Talabalar turar joyi**

Talabalar turar joyi bu-vaqtinchalik, o'quv yili davomida boshqa hududlardan kelgan talabalar yashash joyi.

Bugungi kunda yotoqxona Universitet hududida joylashmaganligi sababli, yotoqxonada yashovchi talabalar Universitetga tashrif buyurishda o'z xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarlikni zimmlariga olishlari lozimligini unutmasliklari kerak.

Agar talaba Universitet yotoqxonasida yashamasa, u holda talaba xonadon yoki uy egasi bilan qonuniy ijara shartnomasini imzolash orqali o'z xavfsizligi va shaxsiy buyumlarining saqlanishi, shuningdek, turar joyining xavfsizligini ta'minlash uchun shaxsan javobgardir.

Talabalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ huquqiy hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ro'yxatdan o'tgan manzilda yashashlari shart.

**MUHIM:** Talabalarning xavfsizligi – ularning shaxsiy javobgarligi hisoblanadi, Universitet yotoqxonasidan tashqarida yashagan talabalar xavfsizligiga Universitet javobgar emas.

Yotoqxona taqdim etiladi:

Birinchi navbatda olis hududlardan kelgan va Toshkent shahrida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan 1-kurs talabalariga.

Bo'sh joylar qolganidan so'ng bo'sh joylar 2- va 3- kurs talabalari o'rtasida taqsimlanadi.

Talabalar turar joyiga joylashish tartibi:

Yotoqxonaga joylashish uchun Talabalar bilan ishlash bo'limiga ariza topshirish.

Bo'lim tomonidan so'ralgan barcha kerakli hujjatlarni taqdim etish.

Talabaga yotoqxona shartnomasida ko'rsatilgan to'lov to'liq amalga oshirilganidan so'ng yotoqxonadan joy ajratiladi.

Talaba yotoqxonada yashash paytida o'z hayoti va sog'lig'i uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.



Talaba yotoqxonada qolish paytida oylik to'lovni o'z vaqtida to'lashga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

### **15. Talabalarning rasmiy muloqot me'yorlari**

Universitet talabalari tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o'zaro munosabatga kirishganda quyidagi rasmiy muloqot me'yor va qoidalariga amal qilishlari kerak:

O'z harakatlarini Universitetning manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish, uning imidjini saqlash va oshirish, talabalar nomi va manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilganda hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi yozishmalarida o'zlarining namunali xulq-atvori bilan Universitet haqida yuksak ijobiy taassurot uyg'otish;

Universitet va uning talabalari haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki noto'g'ri talqin qilingan va bunga imkon beradigan ma'lumotlarni tarqatmaslik, bunday ma'lumotlar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda bu mavzuda chiqishlar qilmaslik;

### **16. Vaqtga rioya qilish**

Talabalar dars mashg'ulotlariga belgilangan vaqtdan 5 daqiqa oldin kelishlari hamda intizomga rioya qilishlari shart.

Talaba tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha akademik taqvim va darslar jadvaliga muvofiq barcha mashg'ulotlarga qatnashish majburiyatini oladi. Agar uzrli sabablar mavjud bo'lsa, talaba ma'lumotnomani olgan kundan boshlab uch kun muddatda Talabalar bilan ishlash bo'limiga taqdim etish majburiyatini oladi.

Talabaning mashg'ulotga qatnashmasligining har qanday sababi "mashg'ulotda qatnashmagan" deb hisoblanadi.

### **17. Universitetda g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo'l qo'yilmaslik**

Talabalarning o'qishiga to'sqinlik qiladigan quyidagi g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishi qat'iyan taqiqlanadi:

har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan, tuhmat qilish, haqoratlash;

giyohvand moddalar, psixotrop, sintetik vosita va turli xildagi tabletkalar hamda ularning analoglari, alkogol va tamaki mahsulotlari, vayp, chilim, elektron sigaretlar va sarxush qiluvchi boshqa vosita hamda moddalarni iste'mol qilish va tarqatish;

tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash;



Universitetga moddiy va uning ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir etuvchi ma'naviy zarar yetkazish;

talabalarga jismoniy, ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazish;

talabalar yoki boshqa shaxslarning mulkiga, moddiy qimmatliklariga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun turli ko'rinishda egallab olish, basharti ushbu holat tegishli asoslar bilan o'z tasdig'ini topsa;

Universitet atrof-muhitini har qanday ko'rinishda ifloslantirish;

Universitet binolari va hovlisida, shuningdek, Universitet binolariga tutashgan hududda spirtli ichimliklar ichish va tamaki yoxud boshqa turdagi mahsulotlarni chekish hamda mast holda bo'lish, tashqi ko'rinishga va mazkur odob-axloq qoidalari bilan belgilangan tartibga zid ravishda soch-soqoli o'sgan, to'zg'igan, sochlarini noodatiy bir yoki bir necha ranglarga bo'yalgan va kiyinish talablariga rioya qilmagan holda kelish;

Universitetga tegishli kompyuterlarda ta'lim muassasasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy ma'lumotlar, behayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib qiluvchi, ekstremistik, separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagi har qanday materiallarni tayyorlash, ko'rish, saqlash, tarqatish va ularga da'vat etish;

O'quv mashg'ulotlariga hamda talabalarning osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish (radiouzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish);

soxta ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish;

Universitet hujjatlariga qasddan o'zgartirish kiritish yoki ularni yo'q qilish (bo'yash, o'chirish, qo'shimcha yozuvlar kiritish yoki zarar yetkazish);

umumbashariy va milliy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki Universitet, uning xodimlari nufuziga putur yetkazadigan materiallarni Internet tarmog'i va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ulardan turli nomuvofiq maqsadlarda foydalanish.

Universitetning ishchanlik obro'si, qadr-qimmatini va nufuzini tushiradigan, ta'lim jarayonining ma'naviy buzilishiga olib keladigan agressiya, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, zo'rlash va vahshiylik, vandalizm, millatlararo nizo qo'zg'atadigan, ta'qiqlangan diniy yo'nalishdagi, terrorizm, ekstremizm va fundamentalizm, shuningdek, behayo va ishqiy sahnalarni namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek Universitet, uning xodimlari hamda talabalari sha'ni va qadr qimmatini hamda ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir qiluvchi haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko'rinishdagi ma'lumot, fikr, mulohaza va munosabatlarni Internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo'lishi (oshkor etilishi) mazkur talabaning o'qishiga to'sqinlik qiladigan g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakat hisoblanadi.



## 5-BOB. TALABALARNING O‘ZARO MUNOSABATLARIGA

### OID TALABLAR

#### 18. Talabalarning o‘zaro munosabatlari

Talabalarning o‘zaro munosabatlari milliy qadriyat va an‘analar, yagona jamoaviy muhit, o‘zaro hurmat va e‘tibor, do‘stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Talabalarning o‘zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o‘zganing intellektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish qat’iyan man etiladi.

Xalqimizning ma’naviy merosini avaylab asrash maqsadida jamoa a‘zolari bir-biriga nisbatan hurmatsizlik qilishlari va bexayo so‘zlar ishlatishi qat’iyyan ta’qiqlanadi hamda Universitetda o‘zaro "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.

Talabalar professor-o‘qituvchi va xodimlarga ismi sharifini aytib murojaat qilishlari shart.

#### 19. Talabalarning pedagog xodimlar bilan auditoriyadagi o‘zaro munosabatlari

Pedagog xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o‘rinlaridan turib hurmatlarini bildirgan holda kutib olishlari, so‘ngra pedagog xodim salomlashib, o‘tirishga ruxsat bergach, o‘z joylarini egallashlari kerak. Pedagog xodim darsini tugatib, auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabalar o‘rinlaridan turib, kuzatib qo‘yishlari lozim.

Do‘stona va akademik muhitni saqlab qolish uchun barcha talabalar o‘zlarining ustoz va o‘qituvchilariga, ma’muriyat xodimlariga va albatta, bir-biriga hurmat ko‘rsatishlari kerak. Auditoriyalarda talabalar o‘qituvchilarining barcha ko‘rsatmalariga rioya qilishlari kerak, ham ijobiy – ilm olish, ham salbiy - samarasiz va buzg‘unchi faoliyatni to‘xtatish, masalan, mashg‘ulot jarayonida maxsus ko‘rsatmasiz mobil telefonlardan foydalanish, talabaga o‘rnini o‘zgartirish haqida ko‘rsatmasiz auditoriyada yurish va hokazo. Agar talabadan auditoriyani tark etish so‘ralsa, u mashg‘ulotda qatnashmagan deb belgilanadi.

#### 20. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish

20.1. Talabalar o‘z uyali aloqa vositalari (telefonlarda) orqali:

diniy mazmundagi noqonuniy turli xil audio va video materiallarni tarqatish;

ekstremizm, radikalizm, zo‘ravonlik, shafqatsizlik va pornografiyani targ‘ib qiluvchi video va fotosuratlarini namoyish qilish;

ekstremizm, radikalizm, zo‘ravonlik va vandalizm sahnalarini suratga olish va namoyish qilish orqali ta’lim muassasasi imidjiga zarar yetkazish;

boshqa noqonuniy videomateriallarni va fotosuratlarini namoyish qilish va tarqatish  
**TAQIQLANADI.**

20.2. Mashg‘ulotlar davomida barcha talabalarga quyidagilar:

- uyali aloqa vositalari orqali SMS (MMS) va boshqa turdagi xabarlarini yuborish;
- musiqa tinglash, shu jumladan minigarnaturalar orqali;
- suratga va videoga olish;



- Uyali aloqa vositalari orqali boshqa xizmatlardan foydalanish **TAQIQLANADI**.

Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda pedagog xodimning ruxsati bilangina ruxsat etilishi mumkin.

## **21. Dars mashg'ulotida ishtirok etish**

Talabalarning darsga kech qolib kelishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Pedagog xodim dars mashg'ulotlariga o'zining nojo'ya harakatlari bilan xalaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektorni (u o'z o'rnida bo'lmaganda Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'ini) xabardor qilgan holda darsdan chetlashtirishi mumkin.

Agar talaba o'z kursdoshlari yoki o'qituvchisiga nisbatan tajovuzkorlik yoki haqorat qilish orqali o'quv jarayonini jiddiy chalg'itsa, undan kun davomida Universitetni tark etishi so'raladi va u butun kun davomida mashg'ulotda bo'lmagan deb belgilanadi. Zaruratga ko'ra, Universitet xodimlari jarayonda yordam berishi mumkin.

Ikkala holatda ham o'qituvchi hodisa haqida hisobot yozadi va mazkur hisobot talabaning shaxsiy ishiga kiritiladi. Talabaga hisobotning nusxasi beriladi va u uch kunda apellyatsiya kiritishi mumkin. Agar talabadan ikki marta sinfni tark etish so'ralgan yoki jiddiy intizomiy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, u Universitetning Odob-axloq komissiyasi yig'ilishiga taklif etiladi. Talabaning xohishiga ko'ra, uning vakili va ota-onasi vasiysi ham taklif etiladi.

Talabalar umumiy o'quv joylarida, ayniqsa mashg'ulot va imtihonlar paytida tartibni saqlashlari kerak.

## **22. Dars mashg'ulotidan tashqari vaqtda muloqot qilish**

Talaba uchun pedagog xodim bilan dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda muloqot qilish zarurati bo'lsa, u holda muloqot:

maslahat soatlari, mustaqil ish yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtda amalga oshirilishi mumkin;

talaba o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan pedagog xodimning lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini bilishi maqsadga muvofiq.

Talaba oldindan kelishilmagan holda professor-o'qituvchining huzuriga kelsa, umumiy yoki o'zaro kelishilgan maslahat soatiga kech qolib kelgan yoki kelmagan bo'lsa, professor-o'qituvchidan hatto qisqa vaqt suhbatlashishni talab qilishga haqli emas.

Asoslangan jiddiy sabablar (qo'pollik, tamagirlik, dars sifatining pastligi, pedagog xodimning aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar va boshqa hollarda) hamda guruh (kurs)ning yakdil fikri mavjud bo'lgan holatlarda talabalar pedagog xodimni almashtirish haqida iltimos bilan o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektorga murojaat qilishlari mumkin.



### **23. Tashabbus va faollik**

Talabalarning Universitetda ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion g'oyalardan samarali foydalanish, turli xil manfaatli tadbirlar uyushtirish bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

## **6-BOB. TALABALARNING ODOB-AXLOQQA OID MAJBURIYATLARI**

### **24. Odob-axloqqa oid majburiyatlar**

Universitetga o'qishga kirayotgan shaxslar mazkur qoidalar bilan yozma ravishda (imzo chektirib) tanishtiriladilar.

Talabalar:

qonun hujjatlari va mazkur qoidalar bilan belgilangan talablarga rioya etishga;

doimo yuksaklikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur anglashga;

odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishga;

Universitet obro'-e'tibori va nufuziga dog' tushiradigan har qanday harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishga;

Universitet to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va ishchanlik obro'siga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;

Universitet mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish (ko'char va ko'chmas mulk, o'simlik va hayvonot dunyosiga va b.), shu jumladan, moddiy texnika vositalaridan to'g'ri va tejamkorona foydalanishga

elektr energiyasi va suvni tejamkorona ishlatishga;

birov-bir noxush voqea yoki hodisa ro'y bersa, u haqda zudlik bilan Universitet rahbariyatiga xabar berishga;

belgilangan cheklovlar va ta'qiqlarga rioya qilish, o'z vazifalarini og'ishmay bajarishga, talabalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, hech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar asoslanmagan noto'g'ri fikr yuritmaslikka va uni kamsitmaslikka;

shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig'vo, fitna, g'iybat va bo'htonlar uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

Universitetning ishchanlik obro'si yoki nufuziga putur yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslikka;

talabalarning mehnat va o'quv jarayonidagi sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazmaslikka;

xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar sodir etmaslikka, shilqimlik qilmaslikka, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalarini mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so'zlardan foydalanmaslikka;



shaxsiy foydasi hamda o'zgalar manfaatini ko'zlab o'z mavqeini suiste'mol qilmaslikka;  
haqiqatni gapirishga, boshqalarni chalg'itmaslikka;  
mutasaddi xodimlarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini o'rnatmaslikka;  
sog'lom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog'lig'ini saqlashga g'amxo'rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshishiga ko'maklashishga;  
tanqidiy mulohazalarni bildirishga va ob'ektiv qaror qabul qilishga, o'z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraf etishga;  
moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ataylab ko'z-ko'z qilmaslikka;  
halovat yoki osoyishtalikni buzish, janjallashish, urushish, qimor va shunga o'xshash boshka o'yinlar o'ynash;  
Universitet hududida ishqiy va jinsiy munosabatlar bilan shug'ullanish;  
qurol, portlovchi moddalarni noqonuniy olib yurish yoki egalik qilish;  
Universitet ma'muriyati ruxsatisiz universitet hududida tijorat faoliyatini amalga oshirish.  
oliy ta'lim muassasasi auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan hududda tozalikni saqlashga;  
hududni ifloslantirmaslik, chiqindilarni joylarda qo'yilgan maxsus qutilarga tashlashga;  
shaxsiy avtomobilni taqiqlangan joyda qoldirmaslik, yo'l harakati qoidalarini buzmaslik va mensimaslikka (beparvo bo'lish), shuningdek, transport vositalaridan foydalanishda xavf-xatar yaratmaslikka;  
o'qishdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslikka majbur.

## **25. Odob-axloqqa oid qo'shimcha talablar**

Talabalar:

nutq madaniyatini doimiy takomillashtirib borish;  
talabalarning o'z-o'zini boshqarish tizimini faol qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni o'stirish;  
pedagog xodim bilan boshqa talabalarning bahosini muhokama qilmaslik;  
yolg'on gapirish yoki professor-o'qituvchilarni chalg'itish bilan bog'liq har qanday hatti-harakatlar qilish;  
shaxsiy manfaat va maqsadlarni hal qilish maqsadida professor-o'qituvchi va boshqa xodimlar, universitet rahbariyati uyiga borish (shu jumladan, tahdid qilish);  
yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib-qoidani bajarish vaqtida chetdan yordam olmaslik, o'zgalarga yordam ko'rsatmaslik;  
boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirmaslik;



mashg'ulotlarni sababsiz o'tkazib yubormaslikka va darslarga sababsiz kechikib kelmaslik;

o'quv mashg'ulotlari vaqtida oliy ta'lim muassasasi hududida behuda yurmaslik;

dars mashg'ulotlari o'tilayotgan vaqtda pedagog ruxsatisiz oliy ta'lim muassasasi hududidan ketib qolmaslik;

Universitet xodimlari va o'qituvchilariga qo'pollik qilmaslikka, ular bilan tortishmaslikka, agarda ular nohaq bo'lsa tegishli shaxslarga xabar berishga, o'qituvchilarning shaxsiy hayotiga oid noo'rin savollar bilan murojaat qilmaslikka, ularga nisbatan adovat saqlamaslik;

talabalar bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganda o'z hissiyotlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni ko'rib chiqish bo'yicha tegishli bo'linma va xodimlar (o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor, yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Talabalar Kengashi) ga murojat qilish;

o'quv jarayonida faol, e'tiborli bo'lishga va pedagog xodimning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish;

dars vaqtida gaplashmaslik hamda dars mashg'ulotiga taalluqli bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanmaslik;

jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, stol va stullarga yozmaslik;

qog'oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslik;

mashg'ulotlar davomida ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslikka, shuningdek, shaxsiy kompyuter va boshqa kommunikatsiya vositalaridan faqat pedagog xodim ruxsati bilan foydalanish;

pedagog xodimga mashg'ulotlar vaqtida savol yoki iltimos bilan qo'l ko'targan holda va ruxsat berilganidan so'ng murojaat qilish;

umumiy ovqatlanish joylarida taomlarga buyurtma berish va olishda navbat tartibiga hamda belgilangan qoidalarga rioya qilish;

talabalar turar joyi Ichki tartib qoidasiga qat'iy rioya qilish;

jamoat xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, imkon darajasida oliy ta'lim muassasasiga jamoat transportida kelish kabi talablarni bajaradilar.

Shuningdek,

Mashg'ulot boshlanishidan 5 daqiqa oldin kelish va tasdiqlangan jadvalga muvofiq mashg'ulotlarda faol qatnashish;

O'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlarga to'liq e'tibor qaratish;

uy vazifalarini, jumladan, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni bajarish;

mobil qurilmalarni ovozsiz rejimga o'tkazish va ulardan faqat o'qituvchi ko'rsatmasiga ko'ra auditoriyada tegishli vazifalarni bajarish uchun foydalanish;

Universitet hududi, auditoriyalari va dam olish zonalarini toza va ozoda saqlash ma'ruzachilar bilan muloqotda bo'lish va mavzuga oid tegishli savollar berish;



qunt bilan o'qish va o'qish davomida xolislikni ta'minlash;

o'qituvchining bilimidan unumli foydalanish.

O'z navbatida, talabalar o'z o'qituvchilaridan quyidagilarni kutishi mumkin:

barcha mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelish;

zaruratga ko'ra zamonaviy ta'lim usullaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish;

talabalarni mavzuni osonroq o'zlashtirishga yo'naltirish;

Universitet standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastur bo'yicha mashg'ulot o'tkazish;

imtihonlarga tayyorlanish;

oraliq va yakuniy topshiriqlarni bajarish sifati bo'yicha talabalarning ishi haqida fikr bildirish.

## **7-BOB. ODOB-AXLOQ QOIDALARINI BUZGAN TALABALARGA NISBATAN CHORA KO'RISH TARTIBI**

### **26. Odob-axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik**

Universitet talabasi tomonidan mazkur qoidalarining buzilishi uni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar qoidalarini buzgan taqdirda, holat Universitet odob-axloq komissiyasi tomonidan o'rganilib, tegishli choralar ko'riladi.

Talaba tomonidan kuch ishlatilib, boshqa shaxslarga tan jarohati yetkazilishida yoki talabaning xatti-harakati sababli 3 va undan ortiq shaxslar guruhlarga bo'linib, nizoli holatlar yuzaga kelganida Universitet odob-axloq bo'yicha komissiya tomonidan aybdor tomon (tomonlar) talabalar safidan chetlashtirish masalasi ko'rib chiqiladi.

## **8-BOB. ODOB-AXLOQ KOMISSIYASI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

### **27. Odob-axloq komissiyasi**

Odob-axloq komissiyasi kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi.

Odob-axloq komissiyasi Universitet rektorining ko'rsatmasi asosida, xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra va o'z tashabbusi bilan faoliyat olib boradi. Shuningdek, Universitet xodimlari, talabalari va aloqa kanallari orqali kelib tushgan ma'lumotlar asosida ham o'z faoliyati doirasidagi masalalarni ko'rib chiqishi mumkin.

Odob-axloq qoidalarini buzgan talabalar Odob-axloq komissiyasi yig'ilishiga taklif etiladi. Talabaga konsultatsiya yoki intizomiy sinov muddati berilishi yoki boshqa choralar ko'rilishi mumkin. Agar talabaga intizomiy sinov muddati berilgan bo'lsa, u bir oydan so'ng navbatdagi yig'ilishga taklif etiladi, undagi ijobiy o'zgarishlar baholanadi va quyidagilar taklif etiladi - sinov



muddatini bekor qilish yoki boshqa intizomiy jazo choralarini qo'llash, shu jumladan talabalar safidan chetlashtirish masalasi ko'rib chiqiladi.

## **28. Odob-axloq komissiyasi xulosasi**

Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini Komissiya tomonidan ko'rib chiqish natijalari bo'yicha intizomiy yoki boshqa tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda Universitet rektoriga ko'rib chiqish uchun qoidabuzar talabani javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritiladi. Yo'l qo'yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq komissiyasi talabaga nisbatan qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Odob-axloq qoidalariga rioya etmagan talabani intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha buyruq loyihasi Talabalarga xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan ishlab chiqiladi.

Talabalar o'zlari yo'l qo'ygan qoida buzilishi hamda qoida buzilishining ko'rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o'zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish huquqiga egadirlar.

## **9-BOB. YAKUNIY QOIDA**

### **29. Odob-axloq qoidalarining kuchga kirishi hamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish**

Mazkur qoidalar Universitet rektorining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va unga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritish Universitet rektorining tegishli buyrug'i asosida amalga oshiriladi.



**“Tashkent International University of Education” xalqaro universitetining talabalari  
tomonidan Odob-axloq qoidalari normalariga zid keladigan nizoli holat va vaziyatlarni  
ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyasining tarkibi**

1. O.Sheraliev - Komissiya raisi, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor
2. M.Baydjanov - Rais o‘rinbosari, Akademik ishlar bo‘yicha prorektor
3. N.Ikramova - Kotib, Yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i
4. A.Djabbarov - A‘zo, Talabalarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i
5. E.Tadjixodjaeva - A‘zo, Axborot texnologiyalari kafedra mudiri
6. R.Bekbaev - A‘zo, Ta‘lim va o‘quv jarayoninni boshqarish kafedra mudiri
7. lavozim bo‘yicha - A‘zo, Biznes boshqaruvi kafedra mudiri

*Izoh: Komissiya a‘zolari ishdan bo‘shaganda yoki boshqa lavozimga o‘tkazilgan taqdirda, ularning o‘rniga shu lavozimga tayinlangan shaxslar komissiya tarkibga kiritiladi.*